

**Hayvonlar anatomiysi, gistologiya va patologik anatomiya kafedrasining
assistenti O‘.A. Rahmonovning “Sitologiya, gistologiya va embriobiologiya”
fanidan “Tuxumdon va sperma surtmasining gistopreparatlarini o‘rganish”
mavzusidagi ochiq laboratoriya mashg‘ulotining ishlanmasiga**

TAQRIZ

Laboratoriya mashg‘uloti mavzusi fan dasturi va fanning ishchi dasturiga to‘liq mos keladi, laboratoriya mashg‘ulot matni yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan holda uslubiy tomondan to‘g‘ri taqsimot qilingan. Dastlab mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari, laboratoriya mashg‘ulotning o‘qitish pedagogik texnologiyasi berilgan va o‘quv faoliyat natijalari ko‘rsatilgan. Laboratoriya mashg‘ulotning texnologik xaritasida esa o‘quv mashg‘ulotining vaqtini ko‘rsatilgan.

Taqdimotda jinsiy hujayralarning gistomorfologik tuzilishi batafsil yoritilgan bo‘lib, talabalar “Tuxumdon va sperma surtmasining gistopreparatlarini” mikroskop ostida ko‘rib o‘rganadilar. Tuxumdon va sperma surtmasining gistomorfologiklogik tuzilishi bo‘yicha bir nechta rasmlar berilgan bo‘lib, ularda jinsiy hujayralarning gistomorfologik tuzilishi va tartibi aniq yoritilgan. Test savollari, nazorat savollari, vazifa va aqliy hujum savollari berilgan. Taqdimot foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati bilan yakunlangan.

O‘.A.Rahmonov tomonidan “Sitologiya, gistologiya va embriobiologiya” fanidan tayyorlangan “Tuxumdon va sperma surtmasining gistopreparatlarini o‘rganish” mavzusidagi laboratoriya mashg‘ulotining taqdimoti hozirgi zamon ta’lim texnologiyalari talablariga javob beradi deb hisoblayman va uni o‘quv mashg‘ulotiga foydalanish uchun tavsiya qilaman.

**SamDVMCHBU, “Ichki yuqumsiz kasalliklar”
kafedrasi v.f.d., professori:**

Bakirov B.B.

**Hayvonlar anatomiysi, gistologiya va patologik anatomiya kafedrasining
assistenti O‘.A. Rahmonovning “Sitologiya, gistologiya va embriologiya”
fanidan “Tuxumdon va sperma surtmasining gistopreparatlarini o‘rganish”
mavzusidagi ochiq laboratoriya mashg‘ulotining ishlanmasiga**

TAQRIZ

“Sitologiya, gistologiya va embriologiya” fani talabalarda hayvonlarning jinsiy hujayralarni gistomorfologik tuzilishi xususiyatlari, hayvonlar organezmidagi tuxum va urug‘ hujayrasi organezimda juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, hayvonlar organizmda murakkab jarayonlarni – nasil qoldirish, hayvonlarning mavjud zotlarini saqlab qolish va yangi zotlar yaratish uchun xizmat qiladi. jinsiy hujayralarni gistomorfologik tuzilishi bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirib, soha muammolarini hal qilishda muhim rol o‘ynaydi.

“Sitologiya, gistologiya va embriologiya” fanidan tayyorlangan ushbu laboratoriya mashg‘uloti bo‘yicha berilgan ta’lim texnologiyasida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish nazarda tutilgan. Laboratoriya mashg‘ulot bo‘yicha tayanch iboralar keltirilganligi mashg‘ulotning yanada tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi.

Laboratoriya mashg‘ulotining ma’tnida Tuxum va urug‘ hujayrasini gistomorfologik tuzilishi batafsil yoritilgan bo‘lib, talabalar tuxumdon va sperma surtmasining gistopreparatlarini mikroskop ostida ko‘rib o‘rganadilar. Tuxum va urug‘ hujayrasini gistomorfologiklogik tuzilishi bo‘yicha bir nechta rasmlar berilgan bo‘lib, tuxum va urug‘ hujayrasining gistomorfologik tuzilishi va tarkibi aniq yoritilgan. Test savollari, nazorat savollari, vazifa va aqliy hujum savollari berilgan. Taqdimot foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati bilan yakunlangan. tarqatma materiyallari talabalarga tushunarli tarzda lotin alifbosida yozilgan.

O‘.A. Rahmonov tomonidan tayyorlangan “Sitologiya, gistologiya va embriologiya” fanidan “Tuxumdon va sperma surtmasining gistopreparatlarini o‘rganish” mavzusidagi laboratoriya mashg‘ulotining ishlanmasi hozirgi zamon ta’lim texnologiyalari talablariga javob beradi deb hisoblayman va uni o‘quv mashg‘ulotiga foydalanish uchun tavsiya qilaman.

**Samarqand viloyat hayvonlar kasalliklari tashxisi
va oziq-ovqat maxsulotlari xavfsizligi Davlat
markazi direktori**

Allamuradova M.M.